AUDITORIYADAN TAShQARI MAShG‘ULOTLARDA XALQ IJODIYOTI ASOSIDA TALABALARNING BADIIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRIShGA QARATILGAN INTEGRATIV-KREATIV PEDAGOGIK YONDAShUV

Qo‘chqorova Dilfuzaxon Egamovna – *mustaqil tadqiqotchi*
dilfuzaqochqorova92@icloud.com
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

ИНТЕГРАТИВНО-КРЕАТИВНЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД, НАПРАВЛЕННЫЙ НА РАЗВИТИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА ВО ВНЕАУДИТОРНЫХ ЗАНЯТИЯХ

Кочкарова Дильфузахон Эгамовна – *самостоятельный соискатель*
Государственный институт искусства и культуры Узбекистана

AN INTEGRATIVE-CREATIVE PEDAGOGICAL APPROACH AIMED AT DEVELOPING STUDENTS’ ARTISTIC THINKING THROUGH FOLK ART IN EXTRACURRICULAR ACTIVITIES

Kochkarova Dilfuzakhon Egamovna – *independent researcher*
State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

Tayanch so‘zlar: talaba, badiiy tafakkur, mustaqil ta’lim, xalq ijodiyoti, folklor, kretiv, integrativ, integrativ-kretiv yondashuv.

Rezyume. Mazkur maqolada auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda xalq ijodiyoti namunalari asosida talabalar badiiy tafakkurini rivojlantirish jarayoni izchil, maqsadga yo‘naltirilgan hamda texnologik yondashuv asosida tashkil etilish masalalari yoritilgan bo‘lib, bunda integrativ-kreativ pedagogik yondoshuv birlamchi vosita sifatida tadqiq etilgan.

Ключевые слова: студент, художественное мышление, самостоятельное обучение, народное творчество, фольклор, креативность, интегративность, интегративно-креативный подход.

Rezyume. В данной статье освещаются вопросы организации процесса развития художественного мышления студентов во внеаудиторных занятиях на основе образцов народного творчества в последовательной, целенаправленной и технологически обоснованной форме. При этом интегративно-креативный педагогический подход рассматривается в качестве основного средства организации данного процесса.

Key words: student, artistic thinking, independent learning, folk creativity, folklore, creativity, integrativity, integrative-creative approach.

Summary. This article addresses the organization of the process of developing students’ artistic thinking through samples of folk creativity in extracurricular activities, based on a consistent, purposeful, and technology-oriented approach. In this context, an integrative-creative pedagogical approach is examined as a primary means of organizing the development process.

.

Kirish. Zamonaviy pedagogik ta’lim jarayonida talabalar badiiy tafakkurini rivojlantirish faqat auditoriya mashg‘ulotlari bilan chegaralanib qolmay, auditoriyadan tashqari faoliyatlar orqali ham izchil davom ettirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, xalq ijodiyoti namunalari asosida tashkil etilgan madaniy-ma’rifiy, ijodiy va interfaol mashg‘ulotlar talabalarning estetik tafakkuri, obrazli fikrlashi hamda ijodiy salohiyatini rivojlantirishda keng pedagogik imkoniyatlarga ega. Shu nuqtayi nazardan, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish talabalar badiiy tafakkurini takomillashtirishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyaya. Respublikamizda auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishning pedagogik shartsharoitlari, mashg‘ulotlarni innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish yuzasidan bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, A.T.Nurmanov “auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar misolida talabalarni samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlarini” [5], G.R.Sobirova “talabalarda kasbiy auditiv layoqatini axborot ta’limiy resurslar vositasida rivojlantirish bo‘yicha auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar dasturini” [8], O.M.Jabbarova “auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida badiiy idrokni rivojlantirish texnologiyasini” [4], D.R.Farsaxonov “auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda talabalarda ijobiy ma’naviyaxloqiy munosabatlar va fazilatlar tarkib toptirish metodlarini” [4] tadqiq etgan.

I.M.Rasulov tomonidan “auditoriyadan, ta’lim muassasasidan tashqarida ijodiy, tanlov xarakteriga ega tadbirlarni tashkil etish orqali talabalarning kompyuter texnologiyasida ijodiy ishlanmalar, oyihalarni tayyorlashga bo‘lgan qiziqish, ehtiyojni qaror toptirish, kompyuter texnologiyasining texnik, texnologik va ijodiy imkoniyatlaridan xabardor bo‘lish, ijodiy ishlanmalar, loyihalarni tayyorlashga doir texnik operatsiyalarni mukammal bajarishga odatlantirish, o‘z ustida izlanishlari uchun sharoit yaratib berish, kompyuter texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalanib, ijodiy g‘oyalarni to‘laqonli ro‘yobga chiqarish uchun yo‘naltirilgan nazariy bilimlari boyitilgan” [6].

Tadqiqotchi O.A.Turakulova tomonidan “adabiyot fani bo‘yicha sinf va ta’lim muassasasidan tashqari ish turlariga adabiy to‘garak, adabiy zal, adabiy o‘yin, adabiy hordiq, adabiy almanax, ko‘rgazma zali, adabiy yarmarka, auksion, adabiy targ‘ibot guruhi, kitobxon haftaligi, ommaviy tadbirlar kabilar kiritiladi” [9].

Talabalarda chuqur nazariy bilimlar bilan bir qatorda xalq ijodiyoti namunalarini mustaqil tahlil qilish, ularga estetik baho berish, ijodiy interpretatsiya qilish hamda turli

badiiy faoliyatlarda qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar talabalarning muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi, mustaqil qaror qabul qilishi, kreativ yondashuv asosida yangi badiiy yechimlar ishlab chiqishi va o‘z ijodiy faoliyatini muntazam takomillashtirib borishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, sahnalashtirish, folklor performanslari, musiqiy dramatizatsiya va kreativ topshiriqlar talabalarning obrazli fikrlashi, estetik idroki hamda badiiy tasavvurini yanada faollashtiradi. Natijada talabalarning estetik tafakkuri, obrazli mushohada yuritishi, mustaqil ijodiy faoliyati hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan badiiy dunyoqarashi izchil rivojlanib, ularning madaniy-estetik kompetensiyalari takomillashadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida “Mustaqil ta’lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta’lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma’naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi” [1] – deb qayd etilgan.

Tadqiqotchi Z.T.Raximov mustaqil ishlarning quyidagi to‘rtta turini qayd etgan (1-rasmga qarang):



1-rasm. Mustaqil ishlarning turlari

Ularning mohiyati quyidagicha tavsiflanadi:

“*namunalar bo‘yicha mustaqil ishlarda* tipik vazifalar amalga oshiriladi, ya’ni turli mashqlar, amaliy ishlar namunalar asosida bajariladi. Namunalar bo‘yicha bajariladigan mustaqil ishlar o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga omil bo‘ladi, lekin talabalar ijodiy faolligini rivojlantirmaydi;

rekonstruktiv-variativ mustaqil ishlar nafaqat bilimlarning amaliy tavsifnomasini, balki bilimlar mazmunini qayta ishlab chiqishni, masala yoki muammoni yechishda ulardan amaliy foydalanishni taqozo etadi; *evristik (qisman ijodiy) mustaqil ishlarda* ma’ruza, laboratoriya, amaliy mashg‘ulotlar, seminarlarda qo‘yilgan muammolar hal qilinadi; *ijodiy tadqiqot ishlarida* talaba masalani hal qilish yo‘llarini mustaqil qidiradi va tadqiq etadi. Ijodiy tadqiqot xarakteridagi mustaqil ishlar talabalarda muammoni ko‘ra bilish malakasini shakllantiradi va natijada ular muammoni mustaqil ifodalay oladi va uni hal etish rejasini ishlab chiqadi” [7].

Yuqorida qayd etilgan darsdan tashqari mashg‘ulotlar turlaridan “mustaqil va ijodiy ish talabalarning shaxsiy va sohaviy bilim va ko‘nikmalarini o‘stirishda, ijodkorlik va tashkilotchilik qobiliyatini shakllantirishda” [3] hamda badiiy tafakkuri rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama va natija. Dars jarayonida olingan bilim va ko‘nikma “darsdan tashqari mashg‘ulotlar uchun poydevor hisoblanib, dars jarayonida olingan nazariy va amaliy bilimlar darsdan tashqari mashg‘ulotlarda mustahkamlash maqsadida o‘tkazilgan ijodiy ishlar talabalarning:

– ko‘nikma va malakalarini oshiradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytiradi;

– bo‘sh vaqtini mazmunli va maqsadli o‘tishini ta’minlaydi, talabaning tashkilotchilik va liderlik qobiliyatini shakllantiradi;


– shaxsiy va kasbiy mahoratini, ijodkorligini, tasavvur va dunyoqarashini, badiiy tafakkurini takomillashtiradi;

– qobiliyati va iste’dodi uchun moddiy va ma’naviy rag‘batlantiriladi, talabaning kasbiy mustaqil ishlashiga zamin yaratadi” [7].

Mustaqil ta’lim jarayoni talabalarning xalq ijodiyoti namunalarini tanlash, ularning mazmun-mohiyatini anglash, obrazlar tizimini tahlil qilish, folklor motivlarini zamonaviy ijodiy talqin asosida qayta ishlash hamda estetik baholash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur faoliyat orqali talabalarda mustaqil mushohada yuritish, muammoli vaziyatlarga kreativ yondashish, badiiy yechimlar ishlab chiqish va o‘z ijodiy faoliyatini refleksiv tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Xalq ijodiyoti namunalari asosida talabalar badiiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ta’limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat (2-rasmga qarang).

Auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda xalq ijodiyoti namunalari asosida talabalar badiiy tafakkurini rivojlantirish jarayoni izchil, maqsadga yo‘naltirilgan hamda texnologik yondashuv asosida tashkil etilishini talab etadi. Mazkur jarayonda folklor namunalarining estetik, tarbiyaviy va ijodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish talabalarning obrazli fikrlashi, estetik idroki, mustaqil mushohada yuritishi hamda kreativ faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarni bosqichli texnologik mexanizm asosida tashkil etish talabalarning badiiy-estetik faoliyatini tizimli boshqarish va pedagogik samaradorlikni ta’minlashning muhim omili hisoblanadi.




2-rasm. Xalq ijodiyoti namunalari asosida talabalar badiiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ta’limning vazifalari

Auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar talabalarning erkin ijodiy faoliyatini tashkil etish, ularning qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olish hamda badiiy-estetik imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda keng pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Bunday mashg‘ulotlarda interfaol metodlar, kreativ texnologiyalar, sahnalashtirish, folklor performanslari, musiqiy dramatizatsiya va multimedia vositalaridan foydalanish talabalarning faol ishtirokini

ta’minlaydi hamda ularning badiiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasida auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda xalq ijodiyoti asosida talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan integrativ-kreativ pedagogik yondashuv ishlab chiqildi (3-rasmga qarang):



3-rasm. Auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda xalq ijodiyoti asosida talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan integrativ-kreativ pedagogik yondashuv

Mazkur yondashuv xalq ijodiyoti vositasida talabalarning estetik didi, obrazli va assotsiativ fikrlashi, kreativ yondashuvi hamda mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan tavsiflanadi.

Asosiy maqsadi auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda xalq ijodiyoti namunalaridan maqsadli va samarali foydalanish orqali talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirish, ularning estetik didi, obrazli tasavvuri, assotsiativ va kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish hamda milliy-madaniy qadriyatlarga ongli munosabatini mustahkamlashdan iborat bo‘lib, talabalarni xalq og‘zaki ijodi, milliy musiqa, urf-odat, marosim, an’ana va folklor namunalarini shunchaki o‘rganishga emas, balki ularni badiiy-estetik jihatdan anglash, tahlil qilish, zamonaviy talqin etish va ijodiy faoliyatda qo‘llashga yo‘naltiradi.

Shuningdek, ushbu jarayonda talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, badiiy obraz yaratish, milliy merosga hurmat bilan yondashish hamda xalq ijodiyoti asosida yangi ijodiy mahsulot yaratish kompetensiyalarini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Mazkur yondashuv asosida auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish natijasida talabalarda xalq ijodiyoti namunalarini badiiy-estetik jihatdan anglash, ularning mazmuni, obrazlar tizimi, milliy ruhiyati va tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda xalq ijodiyoti asosida talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirishning texnologik imkoniyatlari talabalarning estetik dunyoqarashi, obrazli va assotsiativ fikrlashi, kreativ yondashuvi hamda mustaqil ijodiy faoliyatini shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida xalq og‘zaki ijodi, milliy musiqa, urf-odatlar, marosimlar va folklor namunalaridan maqsadli foydalanish talabalarning milliy-madaniy merosga ongli munosabatini rivojlantirish, estetik didini takomillashtirish hamda badiiy tafakkurini faollashtirishga xizmat qilishi aniqlandi. Shuningdek, interfaol metodlar, kreativ yondashuvlar, sahnalashtirish, folklor performanslari, musiqiy dramatizatsiya hamda multimedia texnologiyalarini integratsiyalash asosida ishlab chiqilgan integrativ-kreativ pedagogik yondashuv auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga imkon yaratishi asoslandi.

Natijada talabalarda badiiy-estetik tafakkur, kreativ fikrlash, badiiy interpretatsiya, mustaqil ijodiy faoliyat olib borish ko‘nikmalari hamda milliy qadriyatlarga hurmat shakllanishi kuzatildi. Shu bois xalq ijodiyoti asosida tashkil etilgan auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar talabalarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni estetik jihatdan barkamol va kreativ fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashda samarali pedagogik vosita sifatida tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.
2. Farsaxonova D.R. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning shakl va metodlari. – Buxoro: // Pedagogik mahorat ilmiynazariy va metodik jurnal, 2020, № 3. 71-76- b.
3. Isakulova N.J. Uzluksiz ta’lim jarayonida o‘quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berishning nazariyasi va amaliyoti (umumiy o‘rta ta’lim va pedagogika kollejining «boshlang‘ich ta’lim» yo‘nalishi misolida): Ped. fan. dok. dis. – Toshkent: O‘MKHTTKMOUQTI.
4. Jabbarova O.M. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilari badiiy idrokini rivojlantirish (auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar misolida): ped. fan.fals. dok. dis. avtoref. – Chirchiq: Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, 2021.
5. Nurmanov A.T. Talabalarni samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari (auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar misolida): ped. fan. dok. dis. – Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2017.
6. Rasulov I.M. Talabalarning loyihalash madaniyatini kompyuter texnologiyalari vositasida rivojlantirish: ped. fan.fals. dok. dis. avtoref. – Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2018.
7. Raximov Z.T. Talabalar mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi. – Toshkent: Voris, 2019.
8. Sobirova G.R. Talabalarning kasbiy auditiv layoqatini rivojlantirishda axborot ta’limiy resurslardan foydalanish texnologiyasi (ingliz tilini o‘qitish misolida): ped. fan.fals. dok. dis. – Jizzax: Guliston davlat universiteti, 2021. Turakulova O.A. Adabiy ta’lim jarayonida akademik litsey o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi: ped. fan. fals. dok. dis. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2020.